

VII BOB. 5-MAVZU

Amaliy mashg'ulot. Olma tarkibini aniqlash

O'rganiladigan tushunchalar

- Kislota borligini aniqlash
- Temirga oid tajriba
- E vitaminini aniqlash

Olimlari qaysi mahsulotlar organizm uchun eng foydali ekanini haqidagi bahsdan to'xtashmaydi. Deyarli barcha tadqiqotchilar olma eng foydali mevalardan biri ekanini tan olishadi. Olma ozuqaviy miqdori bo'yicha chempion bo'lmasa ham, yer yuzidagi eng mazali va foydali meva hisoblanadi. U vitamin va mikroelementlar xazinasidir. Organizmni yoshartirib, immunitetni kuchaytiradi. Olma tarkibidagi temir kam-qonlikni davolashda juda qo'l keladi.




1-tajriba. Olma kislotasini aniqlash

Zarur jihozlar: probirkalar, pipetka, stakan.

Reaktivlar: universal indikator, 3 xil olma

1. Har bir olmadan alohida staknlarda sharbat tayyorlanadi.
2. Universal indikator qog'oz ustiga olma sharbatlaridan tomiziladi.
3. Kuzatishlar asosida xulosa qilinadi.




2-tajriba. Sinov namunalarida temirni aniqlash

Zarur jihozlar: probirkalar, pipetka, stakan.

Reaktivlar: NaOH natriy gidroksidi eritmasi, 3 xil nav olma sharbatlari.

1. Har bir olma sharbatidan probirkalarga oz miqdorda quyiladi.
2. Namunalarga NaOH natriy gidroksidi eritmasidan tomiziladi.
3. Kuzatishlar asosida xulosa qilinadi.



3-tajriba. E vitaminini aniqlash

Zarur jihozlar: probirkalar, pipetka, stakan.

Reaktivlar: HNO₃ nitrat kislota eritmasi, 3 xil olma sharbatlari.

1. Har bir olma sharbatidan quruq probirkalarga 10 tomchidan quyib olinadi.
2. Namunalarga HNO₃ nitrat kislota eritmasidan 10 tomchidan tomiziladi.
3. Probirkalar silkitiladi.
4. Kuzatishlar asosida xulosa qilinadi.

Topshiriq

Loyiha ishi: "Mevalar yoki sabzavotlar tarkibidagi vitamin va minerallar" mavzusida loyiha ishi tayyorlang.

